

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

M. HAKIMOVA

**«Semasiologiya» fanidan mustaqil ta'limdi tashkillashtirish
bo'yicha uslubiy qo'llanma**

TOSHKENT - 2016

M.Hakimova. «Semasiologiya» fanidan mustaqil ta'limni tashkillashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. (uslubiy qo'llanma) – Toshkent. 2016.

«Semasiologiya» fanidan mustaqil ta'limni tashkillashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar nomli ushbu qo'llanma 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalalar uchun mo'ljallangan.

Ushbu qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasи dotsenti M.Hakimova tomonidan tuzildi.

Qo'llanmada “Semasiologiya” fani bo'yicha mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, mustaqil ish mavzulari, ularni baholash mezonlari tizimi tavsiya etiladi.

«**Semasiologiya**» fanidan mustaqil ta'limni tashkillashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar deb nomlangan ushbu uslubiy qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi fakulteti kengashida muhokama etilib, nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

Z.Xolmanova – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasи mudiri, professor.

S.Adilova – Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili kafedrasи dotsenti, p.f.n.

«Semasiologiya» fani bo‘yicha mustaqil ish bajarish bo‘yicha

USLUBIY KO‘RSATMALAR

«Semasiologiya» fani o‘quv rejasida belgilanganidek o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishida 3 – kurs 7-semestrda o‘qitiladi. Fan uchun jami 156 soat, shu jumladan, 36 soat ma’ruza, 40 soat amaliy, 80 soat talabaning mustaqil ishi uchun ajratilgan.

Talabaning mustaqil ishi o‘quv rejasida “Semasiologiya” fanini o‘zlashtirish uchun belgilangan o‘quv ishlarining ajralmas qismi bo‘lib, u metodik va axborot resurslari bilan ta’milnadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda har bir talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- mavzu yuzasidan tahlilga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish;
- semik va semantik tahlil qila olish;
- referat tayyorlash;
- taqdimot tayyorlash.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o‘quv mashg‘ulotlarini olib boradigan o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba uchun fan bo‘yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedrada o‘quv mashg‘ulotini bevosita olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan tuziladi, hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o‘quv qo‘llanmalar, metodik qo‘llanma va ko‘rsatmalar, ma'lumotlar to‘plami va

banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmog‘idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo‘yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

“Semasiologiya” fani bo‘yicha talabalarning mustaqil ishlari o‘quv semestri davomida baholanib boriladi. Semestr yakunida mustaqil ish natijalari joriy nazorat reyting balliga qo‘shiladi.

Reyting nazorati jadvali

Nazorat turi	O‘tkazish shakli	Bajarish mexanizmi	Maksimal ball	Saralash bali	O‘tkazish Haftasi
1-JN	Og‘zaki	savol-javob 2 x 5 ball	10	5.5	8-hafta
2-JN	Og‘zaki	savol-javob 5 ball mustaqil ish 5 ball	10	5.5	10-hafta
3-JN	Yozma	ilmiy matn tahlili 5 ball taqdimot 5 ball	10	5.5	12 – hafta
4-JN	Yozma	referat 10 ball	10	5.5	14 – hafta
ON	Yozma	3 ta savol x 5 ball	15	8.25	8-hafta
ON	Yozma	15 ta test x 1 ball	15	8.25	10-hafta
YaN	Yozma	3 ta savol x 10 ball	30	15.5	20-hafta
Jami			100	55	

Mustaqil ishni baholash mezonlari:

- «Semasiologiya» faniga ajratilgan mustaqil ishning 40 soati amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikka qaratilgan. Amaliy mashg‘ulotlar uchun 40 soat auditoriya mashg‘uloti va 40 soat mustaqil ish soat ajratilgan bo‘lib, har bir amaliy mashg‘ulotga tayyorgarlik uchun 2 soatlik mustaqil ta’lim belgilangan.
- talaba mazkur fan bo‘yicha ikki marta yozma ravishda mustaqil ish va bitta taqdimot topshiradi.
- 1-yozma mustaqil ish 2-joriy nazorat tarkibida bo‘lib, u semik va semantik tahlillardan iborat. Birinchi mustaqil ish ikki qismdan iborat bo‘ladi. Birinchi qismda talaba bir ma’noli leksemani komponent tahlil (semik tahlil) qiladi. Bunda semalarni ajratish bilan birga, sema turlarini aniq ko‘rsatishi lozim. Ikkinci qismdda ko‘pma’noli leksemaning ma’no taraqqiyoti aniqlanadi. Unda ko‘pma’nolilikning turi, nom ko‘chish usullari aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. 1-yozma mustaqil ish alohida 12 varaqli daftarga yozilgan bo‘lib, talabaning bilimi, tahlillarni to‘g‘ri bajarganligi, sxemalarining aniqligi, savodxonligi, husnixati maksimal 5 ball bilan baholanadi. Mazkur yozma mustiqil ish uchun 10 soat ajratilgan.
- 2-yozma mustaqil ish esa 4-joriy nazorat hisobidan bajarilib, maksimal 10 ball bilan baholanadi. Mazkur mustaqil ish referat tarzida bo‘lib, unda talaba mustaqil ish uchun tavsiya qilingan mavzular bo‘yicha kichik ilmiy tadqiqot bajaradi. Unda mavzu bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar, manbalar va internet ma'lumotlari qiyosiy tahlil qilinishi, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha mustaqil fikrlarning mavjudligi, nazariy ma'lumotlarning izchilligi, tahlillarning to‘g‘riligi, havolalarning aniq berilganligi, adabiyotlar ro‘yxatining to‘g‘ri shakllantirilganligi asosiy baholash mezonlari hisoblanadi. Mazkur yozma mustiqil ish uchun 15 soat ajratilgan.
- taqdimot tayyorlash. Talaba tavsiya qilingan mavzular bo‘yicha elektron taqdimot tayyorlaydi. Taqdimotda berilgan mavzudagi asosiy nazariy masalalarning aniq yoritilishi, sxema va jadvallarning to‘g‘ri ishlanganligi, ma'lumotlar ketma-ketligining mantiqiy izchillikka asoslanganligi, savodxonligi, etik va estetik talablarga javob berishi kabilar baholash mezonlari sanaladi. Taqdimot 3-joriy nazorat tarkibida baholanib, maksimal 5 ball bilan baholanadi.

“TASDIQLAYMAN”

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O`zbek tili va adabiyoti universiteti

O`zbek tili va adabiyotini o`qitish fakulteti

O`zbek tilshunoslini o`qitish metodikasi kafedrasи

mudiri: Z.Xalmonova

«_____» «_____» 2016-yil

MUSTAQIL ISH BAJARILISHINING

KALENDAR REJASI

O`zbek tili va adabiyotini o`qitish fakulteti 3- kurs ____ guruh 5- semestr

Fanning nomi: Semasiologiya

Ma`ruza o`qituvchisi _____

Amaliy o`qituvchi: _____

Ajratilgan soat: 156 Mustaqil ta`lim 80 soat . Shundan:

40 soat amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik;

10 soat semik tahlil;

15 soat referat tayyorlash;

15 soat taqdimot tayyorlash.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

(3-kurs, 5-semestr uchun – 80 soat)

No	Mavzular mazmuni	Mashg`ulotlar maqsadi	Ummiy soat	Auditoriya soati	Mustaqil ish soati	Baholash (maks. ball)
AMALIY MASHG`ULOTLARGA TAYYORGARLIK						
1.	“Semasiologiya” fani doirasida o`rganiladigan asosiy masalalar. Fanning boshqa fanlar bilan o`zaro munosabati.	Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o`zlashtirish, konspeklashtirish.	4	2	2	

2.	Lug‘aviy birliklarning semantik xususiyatlari: so‘z, ibora, termin, tasviriy ifoda, qo‘shma so‘zning lug‘aviy ma’no ifodalashdagi o‘rni.	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish.	4	2	2	
3.	Semema va uning xususiyatlari.	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish.	4	2	2	
4.	Sema – narsa-hodisa haqidagi belgilar tizimi.	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish. Semik tahlil.	4	2	2	
5.	Integral, differensial, potensial semalar.	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish. Semik tahlil.	4	2	2	
6.	Polisemiya	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish. Polisemantik leksemalarni ma’noviy tahlil qilish.	4	2	2	
7.	Leksik ma’no tiplari	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish. Leksik ma’no turlarini aniqlash.	4	2	2	
8.	Lug`aviy ma’no taraqqiyoti, uning natijasi.	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish. Polisemantik leksemalarning ma’no taraqqiyotini aniqlash.	4	2	2	
9.	Ma’no taraqqiyoti va semik tahlil.	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish. Semantik strukturasida o‘zgarish yuz bergen leksemalarning ma’no taraqqiyotini aniqlash.	4	2	2	

10.	Leksik ma'noning sintagmatik xususiyatlari..	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.	4	2	2	
11.	Semantik valentlik	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish. Leksemallarning ma'no taraqqiyotini aniqlash.	4	2	2	
12.	Antonimiya	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.	4	2	2	
13.	Sinonimiya	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.	4	2	2	
14.	Graduonimiya	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.	8	4	4	
15.	Gipero-giponimiya	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.	4	2	2	
16.	Partonimiya	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.	4	2	2	
17.	Semantik maydon	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.	8	4	4	
18.	Semasiologiya fani doirasida qo'llanadigan metodlar.	Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.	4	2	2	
	Jami	1	80	40	40	
II	SEMIK TAHLIL	Bir ma'noli leksemani komponent tahlil (semik tahlil) qilish. Sema turlarini aniqlash. Polisemantik leksemaning ma'no taraqqiyoti aniqlanadi. Unda ko'pma'nolilikning turi, nom ko'chish usullari aniq ko'rsatilgan bo'lishi	10		10	5 ball

		lozim.				
III	REFERAT TAYYORLASH	Tavsiya qilingan mavzular bo'yicha kichik ilmiy tadqiqot bajariladi. Referatda mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar, manbalar va internet ma'lumotlari qiyosiy tahlil qilinadi, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha mustaqil fikrlarning mayjud bo'lishi lozim, nazariy ma'lumotlar izchil, tahlillar to'g'ri, havolalar aniq berilishi, adabiyotlar ro'yxati to'g'ri shakllantirishi lozim.	15		15	10 ball
IV	TAQDIMOT TAYYORLASH	Talaba tavsiya qilingan mavzular bo'yicha elektron taqdimot tayyorlaydi. Taqdimotda berilgan mavzudagi asosiy nazariy masalalar aniq yoritilishi, sxema va jadvallar to'g'ri ishlanganligi, ma'lumotlar ketma-ketligi mantiqiy izchillikka asoslanishi, savodxonlikka e'tibor berilishi, taqdimotning etik va estetik talablarga javob berishi lozim.	15		15	5 ball
	jam'i		120	40	80	20

1-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: SEMASIOLOGIYANING OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI.

Topshiriq: a.Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishslash
1. Semasiologiya qanday soha?
 2. Semasiologianing o'ganish ob`ekti nima?
 3. Umumiy semasiologiyada nima o'rganiladi?
 4. Xususiy semasiologiyada nima o'rganiladi?
 5. Fonosemantika haqida ma'lumot bering.

6. Grammatik semasiologiya qanday ishki bo‘linishlarga yega?
7. Ma`no tilshunoslikdan boshqa yana qanday fanlar tomonidan o‘rganiladi?
8. Qanday ma`noga lisoniy ma`no deyiladi?
9. Lisoniy ma`noning qanday turlari mavjud?
10. Grammatik ma`no haqida ma`lumot bering.
11. Leksik ma`no haqida ma`lumot bering.
12. Leksik semantika tilshunoslikning qanday sohasi?
13. Ma`no qanday kategoriya?
14. Ma`no tilshunoslikdan boshqa yana qanday fanlar tomonidan o‘rganiladi?
15. Falsafa tarixida ma`noning o‘rganiganligi haqida ma`lumot bering.
16. Lingvistikada ma`noning o‘rganilanligi haqida ma`lumot bering.
17. Leksik semantika qashon tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajralib shiqdi?
18. O`zbek ma`noshunosligening shakllanishi haqida ma`lumot bering?
19. O`zbek ma`noshunos olimlar haqida ma`lumot bering.
20. Semasiologiyaning boshqa fanlar tarkibidagi shakllanishi haqida ma`lumot bering.
21. 19-asr va 20-asrning birinshi yarmini o‘z ishiga olgan davrda semasiologik tadqiqotlarda qanday lisoniy hodisalar tekshirildi?

2-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: LUG`AVIY BIRLIKLARINING MAZMUN-MUNDARIJASI

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishlash
1. Umumiy semasiologiya nimani tadqiq qiladi?
 2. 20-asrning ikkishi yarmidan boshlab semantik tadqiqotlarning mazmunida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
 3. Semasiologiya va semantika terminlari haqida ma`lumot bering
 4. So‘z va leksema atamalari, ularning munosabati haqida ma`lumot bering.
 5. Elementar leksik-semantik birliklar haqida ma`lumot bering.
 6. Leksema qanday birlik?
 7. Semema qanday birlik?
 8. Leksik-semantik variantlar haqida ma`lumot bering.
 9. Tilning lug‘ at tarkibini qanday birliklar tashkil qiladi?

3-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: LEKSEMA, SEMEMA, SEMA TUSHUNCHALARINNING MOHIYATI.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishslash.
1. Leksemaning ikki plani haqida ma'lumot bering.
 2. Leksemaning shakl tomoni qanday atamalar bilan nomlanadi?
 3. Leksemaning mazmun tomoni ushun qanday atamalar qo'llanadi?
 4. Leksik ma'no va semema atamasining munosabati haqida tushuntiring.
 5. Leksemaning semantik strukturasi deyilganda nima nazarda tutiladi?
 6. Sememaning strukturasi nimalardan iborat?

4-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: SeMA VA UNING TURLARI.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishslash.
1. Sememaning tarkibi qanday tuzilgan?
 2. Semema semalarining asosiy tiplari M.Mirtojiev talqinida qanday berilgan?
 3. Sema turlarining Sh.Rahmatullaev asarlarida qabday yoritilgan?
 4. Boshqa adabiyotlarda semalar tasnifininig yoritilishi haqidagi so'zlab bering.
 5. Sema haqida ma'lumot bering.
 6. Semalarning ma'no xususiyatiga ko'ra qanday turlari mavjud?
 7. Denotativ sema deb nimaga aytildi?
 8. Konnotativ sema deb nimaga aytildi?
 9. Vazifa semasining ajratilishiga sizning munosabatingiz qanday?
 10. Integral sema haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.
 11. Differensial sema haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.
 12. Arxisema deb nimaga aytildi?
 13. Implikatsional deb nimaga aytildi?
 14. Tilshunoslikda intensional termini nima uchun qo'llanadi?

5-amaliy mashg` ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: INTEGRAL, DIFFERENSIAL, POTENSIAL SEMALAR.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishlash
- 1. Differensial-semantik tahlil metodi
- 2. Arxisemaning jahon tilshunoslihigadi talqini
- 3. O'zbek tilshunosligida ma'lum arxisemalar asosida o'rganilgan maydonlar.
- 4. Potensial semaning namoyon bo'lishi.
- 5. Arxisema haqida ma'lumot bering.
- 6. Integral sema va arxisemaning farqi nimada?
- 7. Differensial semalarning mohiyati nimada?
- 8. Potensial sema deb qanday semalarga aytiladi?
- d. Tahlil qilish. Bir ma'noli leksemalarni semik tahlil qilish.

6-amaliy mashg` ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: POLISEMIYA

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishlash.
- 1. Polisemiya qanday hodisa?
- 2. Polisemiyani vujudga keltiruvshi asosiy omillar nimalardan iborat?
- 3. Tildagi tejamkorlik prinsipi va uning polisemiyaga ta`siri haqida gapiring.
- 4. Polisemiyadagi shakl va mazmun nomutanosibligini tushuntiring.
- 5. Polisemiyani invariant-variantlilik nuqtai nazaridan tushuntirib bering.
- 6. Polisemem leksemaning semantik strukturasi nimalardan iborat bo'ladi?
- 7. Polisemem leksemadagi ma`nolararo munosabatlar haqida gapiring.
- 8. Polisemem leksemadagi ma`nolararo munosabat turlarini aytинг.
- 9. O`xhashlikka asoslangan bog` lanishlar va uning turlarini tushuntiring.
- 10. O`zaro aloqadorlik asosidagi bog` lanishlar va uning turlarini tushuntiring.
- 11. Polisemiyadan omonimiyaga qadar yetib borgan ma`no taraqqiyotiga misol keltiring.
- 12. Hosila ma`nolarning bosh ma`no bilan munosabatiga ko`ra polisemiya qanday turlarga bo`linadi?
- 13. Radial bog` lanishli polisemiya deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
- 14. Zanjirsimon polisemiya deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.

15. Radial-zanjirsiomn polisemiya deb nimaga aytildi? Misollar keltiring.
16. Ma`nolarning oppozitsiyasiga ko`ra polisemianing qanday turlari ajratiladi?
17. Assotsiativ polisemiyani tushuntiring
18. Assotsiativ-mazmuniy polisemiya deb qanday polisemiyaga aytildi? C. Tahlil. Polisemantik leksemalarda ma`nolaro bog` liqlikni aniqlash. Polisemiyadan omonimiyaning shakllanishiga misolllar topish va semik tahlil qilish. Ushbu mashqni bajarishda namunadan foydalaning.

7-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: LEKSIK MA’NO TURLARI.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklahtirish.

b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishlash

1. To‘g‘ ri ma`no deb qanday ma`noga aytildi? Misollar keltiring.
2. Ko‘shma ma`no deb qanday ma`noga aytildi? Misollar keltiring.
3. Semantik motivlashish nuqtai nazaridan leksik ma`nolar qanday turlarga bo‘linadi?
4. Bosh ma`no va uning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Hosila ma`noning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Qanday ma`nolarga yerkin ma`no deyiladi?
7. Qanday ma`nolarga bog` liq ma`no deyiladi?
8. Frazeologik bog` langan ma`no deb qanday ma`noga aytildi?
9. Sintaktik jihatdan shegaralangan ma`no deb qanday ma`noga aytildi?
10. Konstruktiv shartlangan ma`no deb qanday ma`noga aytildi?
11. Nominativ ma`no qanday ma`no?
12. Figural ma`no qanday ma`no?

D. Tahlil. Muayyan matndagi polisemantik so‘zlarning ma`no turkarini aniqlang.

8-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: LUG`AVIY MA’NO TARAQQIYOTI, UNING NATIJASI.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklahtirish.

b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishlash

1. Leksik ma`noning o‘zgarish sabablari nimalardan iborat?

2. Leksik ma`noning o‘zgarish yo‘llari haqida gapiring.
3. Metafora va uning turlari haqida ma`lumot bering
4. Metonimiya va uning turlari haqida ma`lumot bering
5. Sinekdoxa va uning turlari haqida ma`lumot bering
6. Vazifadoshlik haqida ma`lumot bering
7. Leksik ma`nodagi o‘zgarishning natijalari qanday bo‘ladi?
- 8. Leksik ma`no taraqqiyoti haqida ma`lumot bering.**

9-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: MA’NO TARAQQIYOTI VA SEMIK TAHLIL.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish.

b. Tahlil. Berilgan leksemalarning ma`no o‘zgarishlarin aniqlang. Ushbu tahlilni bajarishda izohli lug‘ atdan foydalaning.

Tuz, acchiq, shirin, kun, qishloq, non, yaylov, yarog‘, bosh, qosh, oyoq, yetak.

10-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: LEKSIK MA’NONING SINTAGMATIK XUSUSIYATLARI.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishslash
1. Munosabat deganda nimani tushunasiz?
2. Til birliklari o‘rtasidagi asosiy munosabatlar haqida ma`lumot bering.
3. Paradigmatik munosabat qanday munosabat?
4. Leksik ma`noning ierarx munosabati haqida ma`lumot bering va misollar keltiring.
5. Leksik ma`noning sintagmatik munosabati haqida ma`lumot bering va misollar keltiring.

11-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: SEMANTIK VALENTLIK.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o‘zlashtirish, konspeklashtirish.

b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishlash

1. Valentlik nima?
2. Semantik valentlik haqida ma`lumot bering.
3. Qanday semaga klassema deyiladi?
4. Asosiy belgilovchi kontekst haqida ma'lumot bering.
5. Neytral kontekst haqida ma'lumot bering.
6. Semantik birika olmaydigan so‘zlar haqida ma'lumot bering.
7. Valentlik atamasi xususida fikr bildiring.

II. Tahlil. Badiiy matndan 10 tadan leksemalarni ajrating, u leksik kontekstini va klassemalarini. Ushbu mashqni bajarishda namunadan foydalaning.

Shoy leksemasining «o‘simlik bargidan maxsus tayyorlanadigan ishimlik» sememasining semantik valentligi:

Klassema	leksik kontekst
Suyuqlik	quymoq, to‘kmoq, ...
Ishimlik	ishmoq, xo‘plamoq, shimirmoq, xo‘rillatmoq, ...
O‘simlik bargidan tayyorlanadigan	ko‘k, qora, yalpiz, ...
Maxsus tayyorlanadigan	damlamoq, qaytarmoq, dam yegizmoq
O‘ziga xos sifatga yega	ashshiq, shirin, xushbo‘y, hidli, ...

12-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: SINONIMIYA

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.

b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishlash

1. Absolyut sinonimlar haqida Sh.Rahmatullaev qanday fikr bildiradi?
2. Kontekstual sinonimlar lisoniy hodisami yoki nutqiy?
3. Bir ma`no anglatishiga ko'ra guruhlangan sinonim so'zlar yig' indisi nima deyiladi?
4. Sinonimlarning qanday turlari mavhud?
 - d. Semik tahlil. O'zbek tili sinonimlarining izohli lo'g' atidan sinonimik qatorlarni semik tahlil qilish.

13-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: ANTONIMIYA

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.

b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishlash

1. Konkret narsa otlarida antonimiya mavjudmi?
 2. Toza-kirlangan so'zları o'rtaida qanday munosabat mavjud?
 3. Aka va uka leksemalari antonim bo'la oladimi?
 4. Mantiqiy markaz hamma antonimik juftliklarda kuzatiladimi?
 5. Fe'lning bo'lishli-bo'lishsiz shakllari antonimiyanı hosil qila oladimi?
 6. Opa-singil, tog'a-xola qanday so'zlar?
 7. Mantiqiy markazga yega bo'lmagan antonimik juftlikka misol keltiring.
 8. Antonimlar qanday uslubiy vosita hosil qiladi?
- d. Semik tahlil. O'zbek tili antonimlarining izohli lo'g' atidan antonimik juftliklarni qiyosiy semik tahlil qilish.

14-amaliy mashg` ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: GRADUONOIMIYA.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o`zlashtirish, konspeklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishlash
1. Leksik graduonimiya bo'yisha nomzodlik ishini amalga oshirgan olima kim?
 2. Shopmoq-yugurmoq-yelmoq leksemalariaro qanday leksik-semantik munosabat mavjud?
 3. Denotativ ma'noning darajalanishi.
 4. Konnotativ ma'noning darajalanishi.
 5. Shaqaloq-bola-o'smir-yigit lesemalari qanday munosabatni hosil qiladi?

TAHLIL. Quyidagi darahalanish qatorlariga o`xshash misollar toping.

I. Predmet yoki predmetlikni ifodalovchi leksemalar (otlar) ma'nolarida darajalanishlar: a) «oqmas suv joyining hajmi»da: hovuz – suv ombori – ko'l – dengiz; b) «oqar suv hajmi»da: jo'yak – ariq – kanal – soy – daryo; v) «joylash o'rmini hajmi»da: xalta – qop – qanor; g) «yosh» semasida: chaqaloq – go'dak – bola – o'g' il/qiz – erkak/xotin – chol/kampir – qariya; d) «xususiy boylikka egalik»da kambag' al – o'rtahol – boy; ye) «baholash» semasida yomon – qoniqarli – yaxshi – a'lo; yo) «mavhumlikdan aniqlikka borilishi»da umumiylilik – alohidilik – xususiylik; j) «yorug' likning kamayib borishi»da yorug' – g' irashira – qorong' i; z) «erning o'z o'qi atrofidagi 24 soatlik aylanish vaqtining oshib borishi»da: sahar – tong – choshgoh – tush – kun oqish – kun botish – shom – tun kabi; i) «erning quyosh atrofida 12 oylik aylanish miqdorining tadrijiy oishb borishi»da: bahor – yoz – kuz – qish va hokazo.

II. Belgi-holat anglatuvchi leksemalar (sifatlar) ma'nolarida darajalanishlar: a) «ta'm»da tussiz – chuchmal – rosa – sho'r; b) «harorat»da iliq – issiq – qaynoq; v) «buy»da: pakana – o'rtal bo'y – novcha – daroz; g) «tezlik»da chopag' on – chopqir – uchqur; d) «fikrlash sifati»da: nodon – esli – dono; ahmoq – esli – aqli – donishmand; ye) «estetik ta'sir»da: kelishgan – husnli – chiroyli – go'zal – sohibjamol; yo) «qo'li ochiqlik»da: sahovatl – sahiy – xotam – ahiy kabi.

III. Sanaluvchi miqdorni anglatuvchi leksemalar (sonlar) tizimining semantik qurilishi sof miqdorning darajali oshib-kamayib borishiga asoslangan: bir – ikki – uch – to'rt ...; yigirma – o'ttiz – qirq kabi.

IV. Harakat-holat anglatuvchi leksemalar (fe'llar) ma'nolarida darajalanishlar:

a) «tovush tomonning kuchayib borishi»da shipshimoq- shivirlamoq – pichirlamoq, hihilamoq – xexelamoq – xoxolamoq - qaxqahlamoq; b) «norozilik hissining oshib borishi»da: ranjimoq – xafalanmoq – diqqat bo'lmoq – xunob bo'lmoq – g' azablanmoq – qahrlanmoq; v) «xavfga munosabat»da: hadiksiramoq – cho'chimoq – qo'rmoq – vahimaga tushmoq; g) «harakat tezligi»da: yurmoq – chopmoq – yugurmoq – yelmoq – uchmoq; d) «harorat»da: isimoq – sovimoq – muzlamoq kabi.

V. Ishora qiluvchi-ko'rsatuvchi leksemalarda (olmoshlarda) darajalanishlar:

a) «nutq ishtirokchilarining makoniy uzoqlashishi»da: men –sen – u; b) «belgilash miqdorining kamayib borishida»da: hamma – ba'zi hyech kim; v) «aniqlikning yo'qolib borishi»da: men – kimdir – hyech kim kabi.

VI. Harakat belgilarini ifodalovchi leksemalarda (ravishlarda) darajalanishlar:

a) «payt»da: kecha –bugun – ertaga, doimo – ba'zan – hyech qachon; b) «harakat miqdori»da: ancha – ko'p – behisob; v) «holat»da: och – ochin-to'qin – to'q, chalqanchasiga – yonbosh – yuzturban kabi.

VII. Taqlidiy leksemalarda davomlilik, ko'plik kabilarning darajalanishlar orqali ifodalanishi: dik-dik – duk –duk – do'q-do'q, shilp-shilp – shalp-shalp – shalop –shalop, mo‘ – mo‘o‘ – mo‘o‘o‘ kabi.

VIII. Undovlarda darajalanish: a) «his-hayajon»da: eh – ehye – eha, eh – oh – voh, uf – uff – ufff, qoyil – ofarin – tasanno; «haydash»da: chu – cho‘ – cho‘h; v) «chaqirish»da: hyey – hoy – hooy kabi.

IX. Modal leksemalarda imkoniyat-zaruriyat ko'lamidagi darajalanishlar: mumkin – lozim – shart – zarur kabi.

15-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: GIPERO-GIPONIMIYA.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konseklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishslash
1. Giperonimning ta'rifini ayting.
 2. Giponim nima?
 3. Ekvonimning ta`rifini tushuntiring.
 4. Xona-yeshik leksemalari qanday lesik-semantik munosabatda?

5. Gul-lola munosabatida giponim leksemani aniqlang.
6. Millat-o'zbek leksemalari munosabtila giponim leksemani aniqlang.

C. Tahlil qilish. *Daraxt, terak, qayin, tol, yel* qatorida giperonim, giponim, ekvonimlarning qiyosiy semik tahlil qiling. *farzand, o'g' il, qiz* qatorida *farzand* qatorida giperonim, giponim, ekvonimlarning qiyosiy semik tahlil qiling.

16-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: PARTONIMIYA.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishslash
1. Yuz-ko'z leksemalari qanday munosabat hosil qilmoqda?
 2. Leksemalarning butun-qism munosabatlari qanday termin bilan ataladi?
 3. Millat-o'zbek leksemalari munosabtila giponim leksemani aniqlang.
 4. Shoynak-qopqoq leksemalariaro qanday leksik-semantik munosabat mavjud?
 5. Partonimik munosabat qanday adabiyotlarda berilgan?
 6. Barcha so'zlar partonimik munosabat hosil qila oladimi?
 7. Olamdagi barcha voqeliklar partonimik munosabat hosil qila oladimi?

17-amaliy mashg`ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: SeMANTIK MAYDON.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishslash, mavzuning mazmunini o'zlashtirish, konspeklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishslash
1. Fizikada maydon tushunshasi qanday ma`no kasb yetadi?
 2. Tilshunoslikka maydon tushunshasi kim olib kirgan?
 3. Tilshunoslikda maydon tushunshasi nimani bildiradi?
 4. Lisoniy maydonning qanday turlari mavjud?
 5. Mazmuniy maydon nazariyasining shakllanishi haqida ma'lumot bering.
 6. O'zbek tilshunosligida mazmuniy maydon nazariyasining shakllanishi.
 7. O'zbek tilshunosligida maydon bo'yisha qilingan ilmiy ishlarni tavsiflang.

8. O`zbek tilshunosligida qanday maydonlar tahlil qilingan?

d.Tahlil. Talaba, ruhiy holat, xurmat, vaqt kabi ma`nolar atrofida birlashuvshi leksemalarning mazmuniy maydonini belgilashga harakat qiling.

18-amaliy mashg` ulotga tayyorgarlik.

Mavzu: SEMASIOLOGIYANING TADQIQ METODLARI.

Topshiriq: a. Tegishli adabiyotlar ustida ishlash, mavzuning mazmunini o`zlashtirish, konspeklashtirish.

- b. Nazariy savol va topshiriqlar ustida ishlash
1. Metod deb nimaga aytildi?
 2. Ilmiy metodlar qanday tasnif qilinadi?
 3. Induktiv va deduktiv metodlar haqida ma`lumot bering.
 4. Tavsifyi metodning semasiologik tadqiqotlardagi o`rni qanday?
 5. Tarixiy va qiyosiy metod haqida ma`lumot bering.
 6. Leksik ma`noni komponentlab tahlil qilish metodining asosiy maqsadi nima?

1-yozma mustaqil ish. Semik tahlil.

1. Bir ma'noli leksemaning yoki polisemantik leksemaning bitta ma'nosini semik tahlili.

Namuna

Leksema: *Hingillamoq*

Sememasi: past ovozda yoqimsiz kulmoq.

Denotativ semalari: kulmoq, ovozning pastligi.

Konnotativ semalari: yoqimsiz (salbiy).

Yirik guruhlarga a'zo qiluvchi arxisemasi: harakat yoki insonga xos harakat.

Qanday integral semasi yoki semalari yordamida oppzitsiyalarga kirisha oladi?

“Kulmoq” semasi bilan *kulmoq*, *jilmaymoq*, *tirjaymoq* leksemalari bilan sinonimik munosabat hosil qila oladi.

Qanday differensial semasi yoki semalari asosida boshqa leksemalar bilan farqlanishlar hosil qiladi? “Yoqimsiz” konnotativ integral semasi bilan *jilmaymoq* leksemasidan farqlanmoqda.

Namuna

Leksema: *Qish*

Sememasi: kuzdan keyin bahordan oldin keladigan yilning eng sovuq fasli.

Denotativ semalari: fasl, kuzdan keying, bahordan oldingi, uch oydan iborat, sovuq.

Konnotativ semalari: yo‘q.

Yirik guruhlarga a’zo qiluvchi arxisemasi: vaqt.

Qanday integral semasi yoki semalari yordamida oppzitsiyalarga kirisha oladi?

“Fasl” semasi bilan *bahor*, *yoz*, *kuz* leksemalari bilan leksik-semantik guruh hosil qila oladi. “Uch oydan iborat” semasi asosida *dekabr*, *yanvar*, *fevral* so‘zлари bilan partonimik munosabat hosil qiladi. “Sovuq” semasi yordamida sovuqlikning oshib borishi belgisi bo‘yicha *yoz* – *kuz* – *qish*, sovuqlikning kamayib borishi bo‘yicha *qish* – *bahor* – *yoz* darajali qatorlar hosil qila oladi.

Qanday differensial semasi yoki semalari asosida boshqa leksemalar bilan farqlanishlar hosil qiladi? “sovuq” denotativ integral semasi bilan *yoz* leksemasidan farqlanmoqda.


Potensial semasi: “qorning yog‘ishi”. Mazkur potensial sema quyidagi kontekstda namoyon bo‘lmoqda: *Bu yil qish juda erta keldi. Noyabrning boshlaridayoq butun borliq oppoq qorga belandi.*

2. Polisemantik leksemaning ma’no taraqqiyotini aniqlang.

Polisemem leksemaning semantik tahlili namunasi

Muz leksemasi polisememdir:

- **Muz - 1:** suvning nol darajagacha sovishi natijasida qotgan holati. *Muz parchasi*.
- **Muz - 2:** muz kabi sovuq (sifat). *Muz havo*.
- **Muz - 3:** yoqimsiz. *Muz kishi*.
- **Muz - 4:** sovuq (ot). *Oyoqdan muz o`tmoq*.



Muz leksemasining semantik strukturasiga hosila ma`nolarining bosh ma`no bilan munosabatiga ko‘ra aralash polisemiya misol bo‘la oladi. Zero, birinchi, ikkinchi va uchinchi ma’nolar bir-biri bilan zanjirsimon bog’langan bo‘lib, ikkinchi

ma'nodan ikkita ma'noning bevosita hosil bo'lisi bu polisemianing murakkab ekanligidan darak beradi.

Muz leksemasi ma`nolarining oppozitsiyasiga ko`ra mazmuniy polisemiyadir.

2-yozma mustaqil ish. Referat.

Referat uchun tavsiya etaladigan mavzular:

Tilshunoslikda leksema ta'rifi masalasi

Tilshunoslikda semalarning tasnifi masalasi

Tilshunoslikda nom ko'chish turlari tasnifi

Leksik ma'no va tushuncha

Tilshunoslikda leksik ma'no turlari tasnifi masalasi

Ziddiyat va uning turlari

Antonimiyani belgilovchi omillar

Sinonimik qatorlarda darajalanish

Mavhum otlar semantikasi

Atoqli otlarda leksik ma'no masalasi

Graduonimiya

Rang bildiruvchi so'zlarda polisemiya

Maza-ta'm ma'noli so'zlarda polisemiya

Tana a'zolari nomlarida polisemiya

Semantik maydon

Lug`aviy ma'no taraqqiyoti, uning natijasi

Lisoniy munosabat turlari

Leksik ma'noning sintagmatik xususiyatlari

Semantik valentlik

Taqdimot tayyorlash

Taqdimot ishchi o‘quv rejadagi mavzular yoki mavzu tarkibidagi qismlar yuzasidan tayyorlanadi.

“Semasiologiya” fanidan test topshiriqlari

1. O‘g‘il – qiz, aka – uka, opa – singil kabi juftliklar paradigmatic jihatdan qaysi hodisaga xos?

Korrelyasiya
Sinonimiya
Antonimiya
Paronimiya

2. Leksik ma'nolaridagi emotsional-ekspressivlik bilan farqlanadigan sinonimlar qanday sinonimlar turini tashkil etadi?

Baholovchi k sinonimlar
Absolyut sinonimlar
Uzvi ta'kidli sinonimlar
Dubletlar

3. Lug‘at boyligi taraqqiyotini belgilovchi lingvistik omillarni ko‘rsating.

Ong, tafakkur
Muyyan til doirasidagi so‘z yasalish, leksik ma'no taraqqiyoti
O‘zlashgan so‘zlar
Jamiyat taraqqiyoti

4. Barqaror birikmalar tarkibi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

Iboralar, maqol-matallar, aforizmlar.
Oksyumoron, antiteza, alliteratsiya.
Paronamaziya, antiteza, parema.
Antiteza, apastrofa, frazema.

5. Adabiy tilga kirmaydigan dag‘al so‘z va iboralar...

Alliteratsiya deb ataladi.
Vulgarizm deb ataladi.
Assonans deb ataladi.
Giperbola deb ataladi.

6. Biror ijtimoiy guruh, toifa vakillari o‘rtasida tushunarli bo‘lgan, boshqalar tushunmaydigan lug‘aviy birliklar...

Varvarizmlar deb ataladi.
Vulgarizm deb ataladi.
Argolar deb ataladi.
Giperbola deb ataladi.

7. Muayyan predmetning nomini boshqa predmetga shakl, belgi va harakat o‘xshashligini e’tiborga olib nom ko‘chirish qanday hodisani bildiradi?

Monolog
Kataxraza
Parallelizm
Metafora

8. O‘zaro tashqi yoki ichki bog‘liqlik asosida nom ko‘chishiga nima deyiladi?

Metofora
Metonimiya
Sinekdoxa
Kinoya

9. O‘zaro shakl, belgi va harakat o‘xhashligi asosida nom ko‘chishiga nima deyiladi?

Metonimiya deyiladi.
Kinoya deyiladi.
Metafora deyiladi.
Parema deyiladi.

10. Zid ma'noli tushunchalarni ni qo'shib qo'llash...

Oksymoron.
Metafora.
Ko‘chim.
Paronim.

11. Semema tarkibida voqyelikka bo‘lgan sub'ektiv munosabatni, emotsiyal-ekspresivlikni ifodalovchi ma'no bo‘lagi nima deb ataladi?

konnottativ sema
denotativ sema
klassema
subsema

12. Kun bo‘yi ishladim. Ushbu jumladagi *kun* so‘zining ma'nosi nominatsiya usuliga ko‘ra qanday ma'no hisoblanadi?

hosila ma'no
ko‘chma ma'no
nominativ ma'no
figural ma'no

13. O‘smlik – gul munosabati leksik-semantik munosabat turlarining qaysi biriga mansub?

sinonimiya
giponimiya
partonimiya
antonimiya

14. Ikki bosh qo‘y. Ushbu jumladagi *bosh* so‘zining ma'nosi semantik birikuvchanlikka ko‘ra qanday ma'no hisoblanadi?

konstruktiv shartlangan ma'no
sintaktik jihatdan chegaralangan ma'no
frazeologik bog‘langan
erkin ma'no

15. *Kitob – sahifa* munosabati leksik-semantik munosabat turlarining qaysi biriga mansub?

- sinonimiya
- giponimiya
- antonimiya
- partonimiya

16. *Qattiq* leksemasining *qattiq gapirmoq* birikmasidagi ma'nosi nominatsiya usuliga ko'ra qanday ma'no hisoblanadi?

- hosila ma'no
- ko'chma ma'no
- nominativ ma'no
- figural ma'no

17. *Yoqa* leksemasining *jar yoqasi* birikasidagi ma'nosi semantik motivlashish nuqtai nazaridan qanday ma'no hisoblanadi?

- ko'chma ma'no
- hosila ma'no
- bog'liq ma'no
- erkin ma'no

18. Qaysi jihatiga ko'ra leksik ma'no erkin va bog'liq ma'nolarga ajratiladi?

- bajaradigan vazifasiga ko'ra
- semantik motivlashishiga ko'ra
- nominatsiya usuliga ko'ra
- semantik birikuvchanligiga ko'ra

19. Bir oid til birliklarining ma'lum axborot tashish uchun ketma-ket bog'lanib kelishi qanday munosabat deyiladi?

- sintagmatik
- paradigmatik
- ierarxik
- semantik

20. Qaysi jihatiga ko'ra leksik ma'no bosh va hosila ma'nolarga ajratiladi?

- bajaradigan vazifasiga ko'ra
- semantik motivlashishiga ko'ra
- semantik birikuvchanligiga ko'ra
- nominatsiya usuliga ko'ra

21. *Bosh bilan ish qilmoq.* Ushbu o'rindagi *bosh* leksemasining ma'nosi semantik birikuvchanlik nuqtai nazaridan qanday ma'no?

bog‘liq ma'no
ko‘chma ma'no
erkin ma'no
hosila ma'no

22. Navoiyni o‘qidim. Ushbu o‘rindagi ma'no ko‘chish tipini ko‘rsating.

metafora
sinekdoxa
funksiyadoshlik
metonimiya

23. Voqyelik bilan bog‘lanmagan, obrazlilik hosil qilish uchun xizmat qiluvchi ma'no qanday ma'no deyiladi?

etimologik ma'no
figural ma'no
nominativ ma'no
kontekstual ma'no

24. Qaysi jihatiga ko‘ra leksik ma'no to‘g‘ri va ko‘chma ma'nolarga ajratiladi?

bajaradigan vazifasiga ko‘ra
semantik birikuvchanligiga ko‘ra
nominatsiya usuliga ko‘ra
semantik motivlashishiga ko‘ra

25. O‘zaro sinonim bo‘lмаган со‘злар qatorini toping.

kaptar - kabutar
kuch-quvvat
o‘y-xayol
or-nomus

26. Qaysi jihatiga ko‘ra leksik ma'no nominativ va figural ma'nolarga ajratiladi?

semantik birikuvchanligiga ko‘ra
semantik motivlashishiga ko‘ra
bajaradigan vazifasiga ko‘ra
nominatsiya usuliga ko‘ra

27. Og‘iz leksemasining o‘choqning og‘zi birikmasidagi ma'nosini bajaradigan vazifasiga ko‘ra qanday ma'no hisoblanadi?

ko‘chma ma'no
hosila ma'no
nominativ ma'no
figural ma'no

28. Nisbiy bosh ma'no polisemianing qaysi turida uchraydi?

radial polisemiyada va zanjirsimon polisemiyada
radial polisemiyada
radial-zanjirsimon polisemiyada
zanjirsimon polisemiyada

- 29. Choy (o'simlik turi) – choy (shu o'simlik mevasidan tayyorlanadigan ichimlik) ushbu leksik ma'nolar o'rtasidagi munosabatni ko'rsating.**
- metafora
 - metonimiya
 - sinekdoxa
 - funksiyadoshlik

- 30. Voqyelik bilan bog'lanmagan, obrazlilik hosil qilish uchun xizmat qiluvchi ma'no qanday ma'no deyiladi?**

- figural ma'no
- etimologik ma'no
- nominativ ma'no
- kontekstual ma'no

- 31. Farzand – o'g'il leksemalari o'rtasida qanday munosabat mavjud?**

- * giponimiya
- sinonimiya
- partonimiya
- antonimiya

- 32. Ko'z leksemasining ishning ko'zi birikmasidagi ma'nosi semantik motivlashish nuqtai nazaridan qanday ma'no hisoblanadi?**

- * hosila ma'no
- ko'chma ma'no
- nominativ ma'no
- figural ma'no

- 33. Yumshoq leksemasining yumshoq muomala birikmasidagi ma'nosi nominatsiya usuliga ko'ra qanday ma'no hisoblanadi?**

- ko'chma ma'no
- bog'liq ma'no
- erkin ma'no
- hosila ma'no

- 34. Tirik murda, otashin daryo birikmalarida qanday xodisa yuzaga chiqqan?**

- Oksyumoron
- Enantiosemiya
- Paronamaziya
- Metonimiya

35. Enantiosemiya hodisasi deb nimaga aytildi?

leksemalar ifodalayotgan bita belgining turli darajasi
antonimik juftlik o'rtasidagi mantiqiy markaz
bir leksema ma'nolarining antonim ma'no ifodalashi
qarama-qarshilik munosabatidagi so'zlar

36. Ekvonim deb nimaga aytildi?

bir gipironimga ega giponimlar
giponimik munosabatdagi tur tushunchasi
giponimik munosabatdagi jins tushunchasi
til birliklarining butun va qism munosabati.

37. Leksik ma'no taraqqiyotidagi miqdor o'zgarishi qanday hodisaga olib keladi?

Polisemiya
Ma'no kengayishi
Ma'no torayishi
Sinonimiya

38. Ta'kidlov yuklamalari o'zi bog'lanib kelgan so'z semantikasiga ilova qiladigan shakl valentligi qanday nomlanadi?

Ta'kidlov valentligi
Sabab valentligi
Kuchaytiruv valentligi
O'rın valentligi

39. Leksema atab kelayotgan borliq hodisasi lingvistikada qanday termin bilan ataladi?

Denotat
Signifikat
Tushuncha
Semema

40. Denotatning inson tafakkuridagi in'ikosi qanday nomlanadi?

Tushuncha
Denotat
Signifikat
Semema

41. Giponimik munosabatdagi jins tushunchasi qanday nomlanadi?

giponim
gipironim
ekvonim

toponim

42. Semema tarkibidagi asosiy yadroni tashkil etuvchi semalar qanday nomlanadi?

- Intetsional sema
- Imlikatsional sema
- Emotik sema
- Klassema

43.Qaysi javobda yangi so‘zlar bilan bog‘liq fikr to‘g‘ri berilgan?

Barcha javoblar to‘g‘ri.

Yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan leksemalar yangi so‘z hisoblanadi.

Yangi narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan leksemalar neologizmlar deyiladi.

Neologizmlar umumtilga mansub bo‘lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo‘lishi mumkin.

44.Diniy e'tiqod, irim, qo‘rqish va shu kabilar ta'sirida so‘zning ishlatalishini cheklash yoki man etishga...

Tabu deyiladi.

Tasviriy ifoda deyiladi.

Paronim deyiladi.

Parallelizm deyiladi.

45.Baqirgan sukunat, qizil qor, shirin g‘am kabi qarama-qarshi bo‘lgan ikki tushunchani qo‘shib qo‘llash adabiyotshunoslikda nima deb ataladi?

Oksymoron.

Maqol.

Matal.

To‘g‘ri javob yo‘q.

46. Semaning tarkibiy qismi qanday nomlanadi?

- subsema
- denotativ sema
- konnotativ sema
- klassema

47. Daraxt - shox munosabati leksik-semantik munosabat turlarining qaysi biriga mansub?

- partonimiya
- sinonimiya
- giponimiya
- antonimiya

48.Qaysi javobda neologizmlar bilan bog‘liq fikr to‘g‘ri berilmagan?

Yangilik bo‘yog‘iga ega ega bo‘lmagan leksemalar neologizm hisoblanadi.
Yangi narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan leksemalar neologizmlar deyiladi.

Ko‘nikilmagan yoki umuman qo‘llanilmagan, ohorli so‘zlar neologizm deyiladi.
Barcha javoblar to‘g‘ri.

49.Leksemaning semantik tarkibida asosiy xodisa nima?

Leksik ma'no
Leksik ma'no va qo‘sishimcha ma'no ottenkalari
Qo‘sishimcha ma'no ottenkalari
Tushuncha

50.Leksik polisemianing asosiy xususiyati nima?

Leksik ma'nolar orasida ma'lum munosabat bog‘lanish bo‘ladi
Leksik ma'nolar asosan tushunchani bildiradi
Leksik ma'nolar orasida bog‘lanish bo‘lmaydi
Leksik ma'nolar o‘zicha shakllanadi

51.Leksemalarning semantik bog‘lanishidan asosiy xodisa nima?

Semalar bog‘liqligi
Grammatik munosabat
Sintaktik aloqa
Semema bog‘liqligi

52. Nutqiy ma'no nima?

Leksemaga tirkab qo‘yilgan ma'no
Leksema tarkibida bor bo‘lgan ma'no
Tushuncha bilan bog‘liq ma'no
Leksemaning uzual ma'nosи

53.Dahshat ichra yonib xon Har tomon qildi farmon.

Belgilab qo‘yilgan leksemaning ma'nosи qanday ma'no turlariga kiradi?
Olkazional ma'no
Etimologik ma'no
To‘g‘ri ma'no
Uzual ma'no

54.A'zo arxisemali leksemalarni to‘la guruhini aniqlang

Ko‘z, qulqoq, bosh, qosh, oyoq, qo‘l, burun
Ko‘z, qulqoq, bosh, qo‘l, oyoq
Ko‘z, bosh, qo‘l, oyoq, qon, tomir
Ko‘z, bosh, qosh, soch, burun, tirnoq

55.Til leksemasining “nutq a'zosi”ma'nosи qaysi usulga ko‘ra ko‘chgan?

Metonimiya
Metafora

Sinekdoxa
Vazifadoshlik

56.Nominativ ma'no

Voqyelik bilan munosabatda bo‘lgan tushunchaning nomi bo‘lgan ma'no Leksema tarkibidagi asosiy ma'no

Leksema tarkibidagi keyin qo‘silgan ma'no

Qadimda leksema tarkibida ma'nodosh bo‘lgan, hozirda unutilgan tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘lab aniqlangan ma'no

57.Arab tildan o‘zlashgan leksemalar qatorini aniqlang.

Aholi, odam, adabiyot, oftob, asos

Adabiyot, jamiyat, fan, osmon, quyosh

Ko‘k, osmon, quyosh, oftob, jamiyat

G‘alaba, jamiyat, intizom, davlat, buloq

Adabiyotlar:

1. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент, 2010
2. Ҳакимова М. Семасиология. Тошкент, 2008
3. Неъматов Ҳ, Расулов Р, Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. - Тошкент, «Ўқитувчи», 1995.
4. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent: Universitet, 2006.
5. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш. Филол. фанлари докт. ...дис. автореф. -Тошкент, 2005.
6. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол.фан.д-ри...дис.-Тошкент , 1999. -259 б.
7. Қўчкортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). - Тошкент: Фан, 1977. - 168 б.
8. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. Тошкент: Ўқитувчи, 1996.